

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIGA XALQARO STANDARTLARNI TADBIQ ETISHDA DAVLATNING TARTIBGA SOLISH TIZIMI

Madaminov Anvar Mamayunusovich

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida xalqaro standartlarni joriy etish jarayonida davlatning tartibga solish tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro standartlarning korxonalar faoliyatidagi samaradorligi va raqobatbardoshlikka ta’siri, shuningdek, davlatning normativ-huquqiy baza orqali va maxsus organlar yordamida standartlarni tatbiq etishdagi mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida davlatning qonuniy, institutsional va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlovi xalqaro standartlarni joriy etishda hal qiluvchi omil ekanligi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: *xalqaro standartlar, davlat tartibga solishi, ishlab chiqarish korxonalari, raqobatbardoshlik, sertifikatlash, normativ-huquqiy baza.*

УПРАВЛЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ

Мадаминов Анвар Мамаюнович

Ферганский государственный университет старший преподаватель

Аннотация: в данной статье анализируется роль и значение государственной системы регулирования в процессе внедрения международных стандартов на производственных предприятиях. Рассмотрено влияние международных стандартов на эффективность и конкурентоспособность деятельности предприятий, а также механизмы государства при внедрении стандартов через нормативную базу и с помощью специальных органов. По результатам исследования было отмечено, что правовая, институциональная и экономическая поддержка государства является решающим фактором во внедрении международных стандартов.

Ключевые слова: *международные стандарты, государственное регулирование, производственные предприятия, конкурентоспособность, сертификация, нормативно-правовая база.*

MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF THE FOOD INDUSTRY AND THE CUSTOMS SYSTEM IN ENSURING FOOD SECURITY

Madaminov Anvar Mamayunusovich

Fergana State University senior lecturer

Abstract: this article analyzes the role and importance of the state regulatory system in the process of introducing international standards at production enterprises. The impact of international standards on the effectiveness and competitiveness in the activities of enterprises is considered, as well as the mechanisms of the state in the implementation of standards through the regulatory framework and with the help of special bodies. Based on the results of the study, it was noted that the legal, institutional and economic support of the state is a decisive factor in the introduction of international standards.

Keywords: *international standards, state regulation, production enterprises, competitiveness, certification, regulatory framework.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi global integratsiya jarayonlari ishlab chiqarish korxonalaridan xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritishni talab etmoqda. Bugungi kunda xalqaro standartlar, jumladan ISO, HACCP, OHSAS va boshqalar korxonalarning sifat menejmenti, ekologik barqarorligi va mehnat xavfsizligini ta'minlashda muhim omillardan biriga aylangan. Ayniqsa, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda ushbu standartlarning ahamiyati yuqori. Mazkur maqolada ushbu standartlarni joriy etish jarayonida davlatning qanday rol o'ynashi, uning tartibga solish mexanizmlari va ta'sir doirasi tahlil qilinadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlari tajribasidan ko'rindan, har qanday mamlakatning taraqqiyoti uning korxona va tashkilotlarida yaratilayotgan mahsulotlar (ishlar va hizmatlar) sifatiga bevosita bog'liq. Sababi ishlab chiqilgan mahsulot (ish, xizmat)lar sifati yuqori, narxi nisbatan past, iste'mol qiymati arzon bo'lsa ushbu mahsulot yoki xizmatning raqobatbardoshligi nisbatan yuqori bo'ladi. Bugungi kunda respublikamida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivoojlantirish sharoitida zamonaviy sifat menejmenti tizimini hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoq va sohalarida xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalaridan amalda samarali foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Sababi milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash va ularning eksport salohiyatini oshirish bevosita mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlashga bevosita bog'liq. Bu o'z navbatida nafaqat ushbu mahsulot, ish yoki xizmat taqdim etuvchi sub'ektning balki,

ushbu xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan hudud, hatto mamlakat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarish korxonalariga xalqaro standartlarni tatbiq etishda davlatning tartibga solish tizimi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu masala zamonaviy sanoat va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifati va xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlardan Michael Portering “The Competitive Advantage of Nations” nomli asarda Porter milliy iqtisodiyotlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun davlatning tartibga solish va rag‘batlantirishdagi o‘rnini tahlil qilgan [8].

Mahalliy olimlardan esa S.S.G‘ulomov o‘zining “Axborot tizimlari va texnologiyalar” nomli darsligida O‘zbekiston sanoat korxonalarida xalqaro standartlarni joriy etishda davlat siyosatining o‘rni va mexanizmlarini tahlil qilgan [9]. Shuningdek, B.X.Xodjayev “Xalqaro baholash dasturlari afzalliklari va imkoniyatlari” nomli tadqiqot ishida O‘zbekistonda texnik jihatdan tartibga solish tizimi va uning modernizatsiyasi masalalarini o‘rgangan [10].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, muqobil tajriba o‘rganish va muqobil ma’lumotlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Davlatning xalqaro standartlarni joriy etishdagi ishtiroki O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlar misolida solishtirma tahlil qilindi. Shundan tashqari, mamlakatimizda amaldagi sertifikatlash va standartlash tizimi, uning institutsional va qonuniy asoslari, hamda biznes subyektlari uchun yaratilayotgan imtiyozlar va rag‘batlantiruvchi choralar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Global iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida xalqaro standartlar muhim o‘rin tutadi. Xalqaro standartlarni joriy etish orqali korxonalar mahsulot sifati, ekologik talablar, mehnat xavfsizligi va boshqa ko‘plab sohalarda jahon miqyosidagi talab va mezonlarga moslashadi. Shu jarayonda davlatning tartibga solish tizimi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Avvalo, davlat xalqaro standartlarni qabul qilish va ularni milliy qonunchilikka integratsiya qilish orqali ichki me’yoriy-huquqiy bazani shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, korxonalar uchun xalqaro standartlarga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini yo‘lga qo‘yishda aniq huquqiy asos va kafolat yaratadi. Jumladan, ISO, HACCP, GMP, OHSAS kabi standartlarning joriy qilinishida davlat tomonidan tasdiqlangan qoidalar va texnik reglamentlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat organlari nazorat va monitoring mexanizmlarini shakllantiradi. Xususan, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya tizimi orqali korxonalarning xalqaro talab va standartlarga mosligini tekshiradi hamda baholaydi. Ushbu jarayon ishlab chiqaruvchilarning mahsulot sifati va xavfsizligiga nisbatan javobgarligini kuchaytiradi va ularni doimiy ravishda takomillashishga undaydi. Shu bilan birga, davlat inspeksiyalari orqali sanitariya, ekologiya, texnika xavfsizligi va boshqa sohalarda qat'iy monitoring olib boriladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalqaro standartlarni samarali joriy etishda davlatning quyidagi mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi:

1. Normativ-huquqiy bazani yaratish va takomillashtirish (standartlash va sertifikatlash sohasidagi qonunlar, qarorlar, tartib-qoidalar).
2. Sertifikatlash organlari va davlat agentliklari orqali nazorat va muvofiqlikni ta’minlash.
3. Korxonalarga moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini (subsidiyalar, soliq imtiyozlari) joriy etish.
4. Xalqaro standartlarga o‘tish uchun maxsus o‘quv dasturlari va axborot resurslarini tashkil etish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida integratsiyalashuv hamda raqobatchilik jarayonlarining rivojlanishi bilan zamonaviy sifat menejmentiga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Misol uchun 2020-yilda ISO standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra dunyoda ISO 22000 standarti talablariga javob beradigan 32 mingdan ortiq sifat menejmentini boshqarish tizimi joriy etilgan. Shu va boshqa holatlar mazkur muammoning dolzarbligidan dalolat beradi [1].

Sifat menejmenti tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi – XX asrda sifatni boshqarish bilan bog‘liq g‘oyalarni rivojlanishining eng muhim nuqtasiga aylandi. E.Demingni ta’kidlashicha, “Korxonalar boshqaruvining amaliy tajribasini nazariya yordamida o‘rganib chiqmagunga qadar, ularni tushunmasdan takrorlash, befoyda bo‘ladi va bu muvaffaqiyatga olib kelmaydi”. Shu sababli sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish bu juda mehnat sig‘imi yuqori va uzoq vaqt talab etadigan jarayon bo‘lib, odatda bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi: korxonadagi mavjud vaziyatni tahlil etish va xodimlarni o‘qitish; xujjalarni ishlab chiqish va xodimlar ishlarining o‘zgarishi; sifat menejmentining ichki auditni amalga oshirish [2].

Umuman olganda, sifat menejmenti tizimi (SMT) - sifatga umumiylar rahbarlik qilish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy tuzilmalar, uslublar, jarayonlar va resurslarning yig‘indisi hisoblanadi. Yoki bo‘lmasa, sifat menejmenti tashkilotni sifatga yo‘naltirilgan tarzda boshqarish va rahbarlik qilish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan faoliyatdir [3].

Shu bilan birga u har qanday tashkilotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini doimiy ravishda yaxshilashga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib uning bozordagi raqobatbardoshligini belgilaydigan tashkilot menejmenti tizimining muhim qismi hisoblanadi.

Sifat menejmentining mazmun-mohiyati o‘zaro hurmat va sheriklik va uni doimo yaxshilab, takomillashtirib borish tamoyillariga asoslangan hamkorlikdagi mehnat jarayonini tashkil etadi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, sifat menejmenti shior emas, balki iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi eng yaxshi tashkilotlar amaliyotida ijobiy sinovdan o‘tgan tamoyil va vositalar tizimi, insoniyat tarixi davomida yig‘ilgan noyob tajriba hisoblanadi [4,5].

Demak, sifat menejmenti tizimi (SMT)ni ishlab chiqish va joriy etish – bu korxona faoliyatining turli javhalariga xujjatlar almashinuvi, xodimlarni boshqarish, ishlab chiqarish tizimosti, ichki kommunikatsiyalar, strategik boshqarishning tizimosti, logistika tizimosti, sotuv tizimosti va mahsulotni sotishga taalluqli bo‘lgan kompleks ishlardir. Umuman olganda, sifat menejmenti tizimi zamonaviy yondashuvlarga mos holda sifatni ta’minlash jarayonlarini to‘liq hajmda amalga oshirishga imkon beruvchi qator komponentlarning mavjudligini o‘zida aks ettiradi.

Uni har gal yanada yuqoriroq darajada takrorlanuvchi hamda o‘zida sifat sohasida tashkilot siyosatini va maqsadlarini ishlab chiqish, sifatni rejalashtirish, sifatni boshqarish, sifatni ta’minlash va sifatni yaxshilashni namoyon etadigan uzlusiz jarayon(sikl) sifatida tasavvur etish mumkin [6,7]. Shunday qilib, har bir tashkilot sifat menejmenti tizimini tashkil qilish, zarur resurslar bilan ta’minlash va boshqarish jarayonini qamrab olgan kompleks tizim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, davlatning tartibga solish tizimi xalqaro standartlarni joriy etishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, davlat tomonidan yaratilgan huquqiy baza orqali korxonalarning standartlarga rioya qilishi majburiylashtirilsa, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlov mexanizmlari orqali esa korxonalar bu jarayonga rag‘batlantiriladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda xalqaro standartlarni joriy etish jarayonida kadrlar malakasini oshirish, sertifikatlash tizimini yanada shaffoflashtirish va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda hali yetarlicha imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi.

Ayrim hollarda korxonalar xalqaro standartlarni joriy etishda qo‘srimcha xarajatlar va byurokratik to‘siqlarga duch kelmoqda. Shuning uchun davlatning vazifasi nafaqat nazorat qilish, balki korxonalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot-maslahat markazlarini tashkil etish va xalqaro tajriba asosida regulyator tizimni takomillashtirishdan iboratdir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda zamonaviy sifat menejmenti tizimini samarali joriy etgan korxona va tashkilot o'zining ishlab chiqargan mahsulotlari va taqdim etayotgan xizmatlari sifati, umuman raqobatbardoshligini oshirishlari orqali bozordagi o'z pozitsiyasini saqlab qolishi hamda mustahkamlab borishi mumkin. Bu pirovardida, korxonalar va umuman mamlakat milliy mahsulotlari va xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashda muhim omillardan hisoblanadi. Natijada iqtisodiyot tarmoq va sohalari, umuman milliy iqtisodiyot raqobatbardorligining oshishi oqibatida aholi turmush darajasi va sifatining oshishiga ijodiy ta'sir etadi. Ishlab chiqarish korxonalarida xalqaro standartlarni samarali joriy etishda davlatning tartibga solish tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimning samaradorligi davlatning huquqiy va institutsional bazasi, iqtisodiy qo'llab-quvvatlov choralari, va ta'lim-axborot resurslari bilan chambarchas bog'liq. Davlat tomonidan bu yo'nalishda olib borilayotgan siyosatlar va islohotlar, o'z navbatida, mamlakatning eksport salohiyati va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4749 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 apreldagi "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 348 sonli qarori
3. Бирюков, А. П. Основные принципы создания системы управления качеством функционирования ЖКХ с использованием современных информационных технологий и средств связи / А. П. Бирюков. М.: Юго-Восток-Сервис, 2005. 218 с.
4. Womack, J. P., & Jones, D. T. (1996). Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. Simon & Schuster.
5. Хакимов Д. В., Умаров А. К. Управление рисками на предприятиях на основе международных стандартов //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 52-66.
6. Khakimov D., Nosirova N. Analysis of the possibility of production processes based on modern methods //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 376. – С. 02016.
7. Khakimov D., Nosirova N. Monitoring the effectiveness of the quality management system in production enterprises //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 149. – С. 01032.

8. Michael Porter “The Competitive Advantage of Nations”
<https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>.
9. S.S.G‘ulomov “Axborot tizimlari va texnologiyalar” Darslik. O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti-2010 yil. ISBN 978-9943-19-025-2
10. X.Xodjayev “Xalqaro baholash dasturlari afzalliklari va imkoniyatlari” Darslik. Sharq nashriyot manbasi-2020 yil. 592 bet.
11. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti.